

O. Hasanboyeva, M. Inoyatova

ODOBNOMA

Umumiy o'рта ta'lim maktablarining
1-sinfi uchun darslik

Uchinchi nashr

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi tomonidan
tasdiqlangan

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti

Toshkent — 2013

UO'K: 17(075)

KBK 74.200.51

H 33

Ogoblova

Taqrizchilar: **N. Komilov** — filologiya fanlari doktori, professor,
Sh. Rizayev — filologiya fanlari nomzodi,
I. Mirzaxalilova — RTM bosh metodisti,
N. Mirrahimova — boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

SHARTLI BELGILAR:



— o'qituvchi o'qib beradi;



— kattalar bilan o'qing;



— jumboqni yeching;



— savol va topshiriqlar;



— savollar;



— topshiriq;



— dars tugadi.

HO 41386
Og1

Davlat budjet mablag'lari hisobidan chop etildi. Bepul.

ISBN 978-9943-07-211-4

© «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti, 2011, 2012, 2013.
© «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.



2013/101
A7883

Alisher Navoiy
nomidagi
O'zbekiston MK

O‘ZBEKISTON — OZOD, OBOD DIYOR.
1-SENTABR — MUSTAQILLIK KUNI



VATAN MEHRI



Rasm asosida Vatanimiz haqida soʻzlab bering.



Bizning Vatanimiz — O‘zbekiston.

Vatan — bizni o‘rab turgan tevarak olam.

Vatan — kindik qonimiz to‘kilgan yurt, ajdodlarimiz yashagan diyor.



Vatanga mehr onaning allasidan boshlanadi.



?

1. Biz yashayotgan yurt qanday ataladi?
2. Biz nima uchun Vatanimizni sevamiz?



O‘ZBEKISTON — JANNAT YURT



O‘zbekiston 1991-yil 31-avgust kuni Mustaqil o‘lkaga aylandi va O‘zbekiston Respublikasi deb e‘lon qilindi. Har yili 1-sentabrda Mustaqillik bayrami nishonlanadi.




Hur o‘lkam



O‘zbekiston — hur o‘lkam,
Bag‘ri to‘la nur o‘lkam.
Humo qushi boshingda,
Baxt porlar quyoshingda.

Mehrga kon, to‘liqsan,
Otamizday ulug‘san.
Sen quvonch-u faxrimiz,
Bag‘ringda shod, baxtlimiz!

Dilshod Rajab



1. O‘zbekiston qachon mustaqillikka erishdi?
2. Ozod o‘lkamiz necha yoshga kirdi?




O'zbekiston Davlat madhiyasini yod oldingizmi?

O'zbekiston Davlat gerbida nimalar aks etgan?



Ozod — .

Mustaqil — .



1. O'zbekistonni nima uchun ozod o'lka deb ataymiz?

2. Katta bo'lganingizda vatanimiz ravnaqiga qanday hissa qo'shasiz?



VATAN BO‘YLAB SAYOHAT



Vatanimiz juda keng. Uning har bir shahar va qishlog'i biz uchun aziz.



Vatanimizning qayerlariga sayohat qilishni istaysiz? Javobingizni (katakka “+” belgisi qo‘yib) belgilang:

Mustaqillik maydoniga — .

Samarqand shahriga — .



Toshkent — Vatanimiz
poytaxti




Samarqand — Sharq
durdonasi



Buxoro — tarixiy
obidalar shahri



Xiva — qadimiy
shahar



Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva
shaharlari haqida nimalarni bilasiz?




Vatan — ona, ostonasi .



OILA — BAXT QO‘RG‘ONI



Har bir insonning o‘z oilasi bor. Oilada ota-ona, buva-buvi, aka-uka, opa-singillar ahil yashaydilar. Ular bir-biriga yordam berishi lozim. Oila kichik Vatandir.




1. Rasmda kimlar tasvirlangan?
2. Oila a‘zolaringiz haqida so‘zlab bering.



Kattani katta bil, kichikni .

O‘ylab topgan so‘zingizni katakchalar yordamida “Odobnoma” daftaringizga yozing.

OILA — MEHR BULOG‘I



1. Vatanimizda qariyalar qanday e‘zozlanadi?
2. Yurtimizda bolalarga qanday e‘tibor ko‘rsatilishi haqida aytib bering.




Xalqimizda qadimdan qariyalarga katta hurmat va e‘tibor ko‘rsatilganini bilib oling!



Kattaga hurmatda bo‘l,
kichikka .



OILAVIY AN'ANALAR




1. Rasmda kimlar tasvirlangan?
2. Rasm asosida oila a'zolarining ahilligi haqida so'zlab bering.



Mening oilam

Uyimizda to'rttamiz,
Eng kichigi bittamiz.
Bu men — quvnoq Toshxonman,
Olti yoshdan oshganman.
O'smoqda bo'y, kokilim,
Shirindir biyron tilim.

Do'stjon Matchon



1. Rasmlarda qanday oilaviy an'analar tasvirlangan?
2. Bolalarning kattalarga hurmati nimalarda ko'rinadi?
3. Oilangiz an'analari haqida so'zlab bering.



ODOB — INSON UCHUN OFTOB. SALOMLASHISH ODOBI


Odobning boshi — salom



Yo'l ustida uchragan
Kishiga bersang salom.
Alik olib avvali, so'ngra
Der: "Rahmat, bolam".

Salomsiz o'tsang agar,
Sho'rlik soqov ekan der.
Tiling bo'lgach, albatta,
Kattalarga salom ber.

Tolib Yo'ldosh



1. Nima uchun "Odobning boshi — salom" deydilar?
2. Qanday bolalar salomlashishni unuttadilar?
3. "Assalomu alaykum", "Vaalaykum assalom" so'zlarining ma'nosini izohlang.



Katakchalarga yashiringan so'zni toping!

1. Odobning boshi — s m.

2. Salom bilan boshlanar — o b.



Odobli kishilar bir-birlarini ko'rganlarida mehr ko'rsatib salomlashadilar. Salomlashish bir-biriga sog'lik va tinchlik tilashdir.


KIM BIRINCHI SALOM BERADI?



Salom berish insonning eng go'zal fazilatidir. Odatda kichiklar kattalarga salom berishadi. Bu bilan ular kattalarga o'z hurmatini bildirishadi.




SALOMLASHISH QOIDALARI



1. Rasmlardagi holatlarni izohlab bering.
2. Qanday holatlarda salom berilmaydi?

ORASTALIK – GO‘ZALLIK RAMZI



1. Rasmlarni izohlang.
2. Orasta va tartibli o‘rtoq‘ingiz haqida so‘zlab bering.

| | |
|-------------------|--|
| 2013/10/ A7885 | Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston MK |
|-------------------|--|



O'QUVCHINING ODOBI



1. Rasmda kimlar tasvirlangan?
2. Odobli o'quvchi maktabda o'zini qanday tutadi?
3. Dars va tanaffus vaqtida rioya qilinadigan odob qoidalarini aytib bering.



Ustoz – otangdek


| | | | |
|---|--|--|----|
| u | | | g' |
|---|--|--|----|

.

MAKTAB QOIDALARI



Maktabda o'quvchi ustozlari va o'rtoqlariga hurmat bilan muomala qilishi lozim. Bilimli o'quvchining asosiy fazilati odobidir.




Maktab odobi



Odobli o'quvchi




KIYINISH ODOBI



1. Siz maktabga qanday tayyorgarlik ko'rasiz?
2. Orasta kiyinish deganda nimani tushunasiz?



Kiyimingiz ozoda va toza bo'lsin.
Kiyimingizni kiyim ilgichda saqlang.
Poyabzalingizni juft qilib, o'z joyiga
qo'yishni unutmang.



1. Qachon qanday kiyinishni bilasizmi?
2. Ota-onangizga yordam berganingizda qanday kiyinasiz?
3. Maktab va uy kiyimining farqini aytib bering.



Qayerda qanday kiyinish kerakligini bilib oling va unga amal qiling. Maktabdan qaytgach, uy kiyimingizni kiying.



Men kurash bilan shug'ullanaman. Kurash bilan shug'ullanganda belga

| | | | | |
|---|--|--|--|----|
| b | | | | g' |
|---|--|--|--|----|

 bog'lash lozim.




KATTAGA HURMATDA, KICHIKKA IZZATDA BO‘L

Odob nima?

Odob so‘zi bir so‘z, lekin
Aytaversang turi ko‘p.
Katta bir so‘z deganda
Darrov desak — labbay, xo‘p.
Va bajarsak biz ularning
Aytganlarin shu zamon,
Shuning o‘zi bir odobdir,
Odobsizlik ko‘p yomon.

Tolib Yo‘ldosh




1. Kimni odobli deb bilasiz?
2. Rasmga izoh bering.

Inoqlikka nima yetsin!





Diyora 1-sinfda o'qiydi. O'qish, yozish, misol va masalalar yechishni juda yaxshi ko'radi. Darslardan qiynalsa, akasi Davrondan yordam so'raydi. Davron — 4-sinf o'quvchisi. U maktabda a'lo baholarga o'qiydi. Shuning uchun singlisining dars tayyorlashiga ko'maklasha oladi.



1. Diyoraga uy vazifalarini bajarishda kim yordam berar ekan?
2. "Men uy vazifasini qanday tayyorlayman" mavzusida kichik hikoya tuzing.



DASTURXON ATROFIDA O'TIRISH VA OVQATLANISH ODOBI



1. Dasturxon atrofida o'tirish va ovqatlanish odobi haqida qaysi qoidalarni bilasiz?
2. Rasmlardan dasturxon atrofida o'tirish odobiga rioya qilinmagan holatlarni toping.

Hikoya



Fotima-Husan va Laylo buvilari bilan ayvonda ovqatlanar edilar. Husan shoshib, pala-partish ovqatlandi. Buvi nabirasiga shunday tanbeh berdi:

— Ovqatlanish odobining o‘z qoidalari bor. Men uchtasini aytib beraman. Odobli bola avval qo‘llarini yuvadi — bu birinchisi. Ikkinchisi — o‘zidan kattalardan oldin taomga qo‘l uzatmaydi. Uchinchisi — taom yeganida, qo‘li bilan yerga tayanmaydi. Qolganlarini siz o‘zingiz topasiz, xo‘pmi?!



?

1. Buvi ovqatlanishning qaysi qoidalarini aytdi?
2. Ovqatlanish haqida yana qanday qoidalarni bilasiz?



INSONNI ULUG'LAYDIGAN FAZILATLAR.

JASUR YIGIT




Bobom quyidagi voqeani aytib berganlar. Kambag'al kishi tog' yonbag'ridagi daryo ko'prigida qorovullik qilar ekan. Bir kuni tog'dan sel kelib, qorovulning omonat uy chasi sel ostida qolibdi. Shunda bir yigit kuchli sel bilan olishib, qorovul va uning oilasini qutqaribdi. Bobom yigitning yaxshiligini mukofotlash uchun unga bir dasta pul bermoqchi bo'libdilar. Shunda yigit:



— Otaxon, pullarni qorovul amakiga bering. U ishsiz qoldi, oilasi yordamga muhtoj, — debdi.


Hamma jasur yigitga qoyil qolibdi.



Odamlar yigitga nima uchun qoyil qolibdilar?



Vatan himoyasiga tayyor turish, o'z-
larga shafqatli bo'lish va kechirimlilik
mardlik va jasurlikdir. To'g'rilik va
to'g'riso'zlik ham mardlik va jasorat
belgisidir.




Katakchalarga kerakli so'zni qo'ying:

M _ _ _ maydonda sinalar.

M _ _ _ _ k — mangulik.

Yurt qo'risang, o'zarsan,

Qo'rimasang t _ _ _ _ _ n.



Topgan so'zlaringizni "Odobnoma" daf-
taringizga katakchalar yordamida
yozing.




QIZLAR FAZILATI — HAYO VA IBO



Hayo — noma'qul ishdan saqlanishdir. U ko'proq qizlarga xos fazilat. Qizlarning hayoli ekanligi ularning odobida, muloyim so'zlashida, kiyinishida ko'rinadi.

Uyat bo'ladi



Nilufar va Aziza birga maktabdan qaytar edi. Aziza oldinda suhbatlashib borayotgan qariyalardan o'tib ketmoqchi bo'ldi. Nilufar dugonasini to'xtatib dedi:

— Shoshma, Aziza. Keksalardan oldin yursang, uyat bo'ladi.



?


1. Nilufar nega dugonasini to'xtatdi?
2. Nilufar Azizaga nima dedi?

Hilola va Zilola

Ikki quvnoq dugona,
So'zlari dona-dona,
Bir-biriga parvona,
Kulgilari shalola,
So'zlari naq risola,
O'quvchi qiz Hilola,
O'quvchi qiz Zilola.



Jumaniyoz Jabborov



1. Hilola va Zilola qanday qizlar ekan?
2. Hayo haqida maqollar toping.



Uyalishga sabab bo'ladigan xatti-harakatlardan saqlanish hayolilik va ibolilik hisoblanadi. Uyatsiz odamda hayo bo'lmaydi.



Hayolilik

o | | b

i | | o




O'QISHDA VA MEHNATDA G'AYRATLI, SHIJOATLI BO'L



Ipak qurti (masal)

Ipak qurti guldan gulga qo'nib, uchib yurgan go'zal kapalaklarga havas qilar edi. Chunki o'zi ular kabi ucha olmas edi-da. Lekin pilla o'rashda mohir edi. Shuning uchun u g'ayrat bilan pilla o'rashda davom etardi. Nihoyat, u pillani o'rab bo'lgach, qattiq uyquga ketdi. Uyg'onganidan so'ng pillani yorib, tashqariga chiqdi. Shunda qurtcha go'zal kapalakka aylanganini ko'rib juda sevindi va gulzor bo'ylab uchib ketdi.

Xulosa: Qunt bilan o'qib, ilm-u hunar egallasangiz, bir kuni kelib uning rohatini ko'rasiz.



1. Qurtcha nima uchun kapalaklarga havas qilar edi?
2. Qurtchanning kapalakka aylanishi sababini aytib bering.



G'ayrat-shijoat — astoydil mehnat qilish, o'qish, dangasalikdan yiroq bo'lishdir. Bolalar, albatta, g'ayratli bo'ling!



Maqollarni yod oling.

Kishining so'ziga emas,
ishiga boq.

Osh desa chopar, ish
desa qochar.

Dangasadan hamma
bezor.

Bugungi ishni ertaga
qo'yma.

Erinchoqlik boshga balo
keltirar.



Katakchalarga yashiringan so'zlarni
toping.

Gap bilan shoshma,

i bilan shosh!

Ish seni yengmasin, sen

i ni yeng.




ROSTGO'YLIK VA YOLG'ONCHILIK



Jasur — rostgo'y bola. U doimo rost gapiradi. Yolg'ondan yiroq yuradi.

Shuning uchun o'rtoqlari uni yaxshi ko'rishadi.



1. Jasur qanday bola?
2. Nega uni o'rtoqlari yaxshi ko'rishadi?



Rostgo'ylik doimo rost gapirishdir. To'g'riso'zlik po'sti achchiq bo'lsa-da, ichi shirin mevaga o'xshaydi. U insonni baxt-saodatga yetaklaydi.



Katakchalarga yashiringan so'zni toping. Boshingga qilich kelsa ham

| | | |
|---|--|---|
| r | | t |
|---|--|---|

 gapir.

Sher bilan qirg'ovul



To'qayda bahaybat Sher bilan Qirg'ovul birga ahil yashar edilar. Sher mehribon va rostgo'y, Qirg'ovul ham mehribon, lekin yolg'onchi edi. U do'sti Sherni ham ko'p marta aldagan edi. Sher Qirg'ovulga yolg'onchilikni tashlashni maslahat berdi. Lekin Qirg'ovul yomon odatini tashlamadi.



Bir kuni Qirg'ovul to'rga ilinib, do'stini yordamga chaqirdi. Sher "Qirg'ovul yolg'ondan chaqiryapti", deb yordamga kelmadi.

Qirg'ovul o'z yolg'onining qurboni bo'ldi.

Alisher Navoiy



Katakchalarda yashiringan so'zlarni toping.

Odamning yuziga boqma,

| | | | | |
|---|--|--|--|---|
| s | | | | a |
|---|--|--|--|---|

boq.

Avval o'yla, keyin

| | | | |
|---|--|--|---|
| s | | | a |
|---|--|--|---|

.



KAMTARLIK VA MANMANLIK



Kamtarlik — shirinsoʻzlik va kishilar xizmatiga tayyor turishdir. Ishi va soʻzi bilan kishilarni quvontirish kamtarlik belgisi hisoblanadi. Kamtarlik dononing, manmanlik nodonning ishidir.



Majnuntol va Mirzaterak

Magʻrur Mirzaterak kamtarin Majnuntolga:

— Senga juda hayronman, oldingdan odam arimaydi. Seni mensishmaydi, shekilli, — dedi.

Majnuntol javob berdi:

— Men odamlarni juda yaxshi koʻraman. Ular soyamda oʻtirishsa, dilim yayraydi. Sen esa oʻz-oʻzingga mahliyo boʻlib, doim yuqoriga qaraganing-qaragan. Shuning uchun oldingga hech kim kelmaydi.



Manmanlikning oxiri — pushaymonlik




Qadimda bir boy o'z boyligi bilan maqtanib, hech kimni nazar-pisand qilmas ekan. Kunlardan bir kuni boy qattiq betob bo'lib, yurolmay qolibdi. Qop-qop oltinlari uning kuniga yaramabdi.



Qo'shnilar uning holidan xabar olib turishibdi. Turli dorilar tayyorlab berib, uni davolashibdi. Boy ularning parvarishi bilan tuzalib ketibdi. Sog' vaqtida qo'shnilariga manmanlik qilganidan juda uyalibdi.

Shunday qilib, boy manmanlikni tashlab, insonlarning qadriga yetadigan bo'libdi.



1. Boy qo'shnilarini nima uchun nazar-pisand qilmas edi?
2. Boy kasal bo'lib qolganida uning kuniga kimlar yaradi?
3. Manman kishilar haqida qanday ertaklarni bilasiz?



ILM VA HUNARNING XOSIYATI.

ILM VA HUNAR TURLARI

Qayerga borma, turli ilmlarni qunt bilan o'rgan. Bilimlarni yodda saqlashni odat qil!

Alisher Navoiy

Bilimli, hunarli bo'l,
Degan dono bobolar.
Ularning qudratiga
Tan bergandir dunyolar.
Ilm-hunar o'rgansak
Mehr qo'yib maktabga,
Biz albatta yetamiz
Orzularga, maqsadga.

Dilshod Rajab



Bilim olish va hunar egallash har bir o'quvchining asosiy burchidir.



Kataklarga yashiringan so'zlarni toping, maqollarni "Odobnoma" daftaringizga ko'chiring:

Aql yoshda emas,

| | | |
|---|--|--|
| b | | |
|---|--|--|

 da.

| | | | |
|---|--|--|--|
| B | | | |
|---|--|--|--|

 — aql chirog'i.



ILM XOSIYATI HAQIDA



Ilm-hunar o'rganish uchun yoshlik davri eng qulay hisoblanadi. Yoshlikda o'rganilgan ilm toshga o'yilgan naqshdir. Ilmli odamni hamma hurmat qiladi. Dunyoning go'zalligi ilm tufaylidir. Ilm-hunar o'rgangan kishi hech qachon xor bo'lmaydi. Yaxshi o'qigan odam bir kun kelib o'z orzusiga erishadi.

Ilm yoqimli atirgul hidiga o'xshaydi. Uni yashirib bo'lmaydi.

Yusuf Xos Hojib



HUNARLI KISHI XOR BO‘LMAS

Hunarli va hunarsiz

Hunarli-yu hunarsiz
qanday bo‘lar?

Bir-biriga teskari
doim ular.

Bittasining qo‘lida
g‘ayrati bor.

Bittasining ko‘nglida
hasrati bor.

Bittasining gap-so‘zi
iliq bo‘lar.

Bittasining har so‘zi
sovuq bo‘lar.

Bittasining mehnatda
qo‘li o‘ynar,

Bittasining hayratda
ko‘zi o‘ynar.

Hunarlini maqtashga
so‘z yetishmas.

Hunarsizni yozishga
til kelishmas.




Ey, bolalar, misoldir —
bular sizga.
Sira-sira o'xshamang
hunarsizga.

Po'lat Mo'min



Hunarsiz kishi bilan do'st bo'lma.

“Qobusnoma”dan



1. Hunarli kishiga xos xislatlar nimalardan iborat ekan?
2. Hunar turlari haqida so'zlab bering.



Hunar mehnat va harakat tufayli qo'lga kiritiladi. Rizq-ro'z kasb-hunar sababli hosil bo'ladi. Hunarmand odam xalq hurmat-e'tiboriga sazovor bo'ladi.



Maqollarni to'ldiring.

Hunar — hr dan unar.

Hunarsizga k yo'q.





KIM BO'LSAM EKAN?

Muxtor: “Katta bo'lsam, albatta, me'mor bo'laman. Ulkan uylar quraman. Me'morlik — eng yaxshi kasb”, — dedi. Munisa esa: “O'qituvchilik barcha kasblardan yaxshiroq”, — dedi. Bahsga Ravshan aralashdi. “Eng zo'r kasb — haydovchilik”, — dedi u.

Birov tikuvchilikni, birov oshpazlikni, yana birov shifokorlikni eng zo'r kasb ekanligini uqtirdi.

Qani ayting-chi, Siz kim bo'lishni istaysiz?



1. Bolalar nima haqida bahslashdilar?
2. Nima uchun bolalar o'zlari tanlagan kasbni maqtashdi?
3. Mohir kasb egalari haqida so'zlab bering.

HAR KASBNING O‘Z XISLATI BOR

Har kimning kasb-hunari bo‘lsa, xor-u zorlik ko‘rmaydi. Donolar shunday o‘git beradilar: “Har kim o‘ziga xos va mos kasb-hunar tanlasa, u baxtlidir”. O‘ziga munosib bo‘lmagan ishga kirishgan kishi oxiri sharmanda bo‘ladi.



Kasb-hunar egasi bo‘lish uchun yoshlikdan qunt bilan o‘qish lozim. Bilmaganini so‘rab bilgan bola aqlli inson bo‘lib voyaga yetadi.



Kataklarga yashiringan so‘zni toping.

Yigit kishiga

| | | | |
|---|--|--|--|
| q | | | |
|---|--|--|--|

 hunar oz.



SALOMATLIK — TUMAN BOYLIK.

TISHING SOG' — VAQTING CHOG'

Shuhrat yong'oqni yaxshi ko'radi. Ba'zan yong'oqlarni tishida chaqib yeydi. Bir kuni uning yong'oq zarbidan zararlangan tishi og'rib qoldi. Shuhrat shifokorga bormadi. Tishini davolatishdan qo'rqib og'riqqa chidadi. Oradan bir qancha vaqt o'tib, o'sha tishi qattiq og'ridi. Kuchli og'riqdan ko'ziga yosh keldi.

Oyisi Shuhratni shifokorga olib bordi. U:

— Kech kelibsan. Endi tishingni sug'urib tashlayman-da, — dedi.

So'nggi pushaymon — o'zingga dushman.



?

1. Nega Shuhrat shifokorga bormadi?
2. Shuhrat nimadan pushaymon bo'ldi?

ERTA TURISHNING XOSIYATI


Ey farzand, bilginki, ko'p uxlash — yomon odat. U kishini lanj va dangasa qiladi.

Uyqu uchun ko'p vaqt sarflab, kunduzni kechaga aylantirma.

Erta turishni odat qil.

“Qobusnoma”dan

Vaqtни qadrlang!



1. Siz ertalab soat nechada turasiz?
2. Nima uchun erda turish kerak?
3. Erta turishning xosiyati haqida maqollar toping.



SOG' TANDA — SOG'LOM AQL

Samadjon bolaligidan nimjon edi. Maktabdagi o'qishi ham ko'ngildagidek emasdi. Yana uning jismoniy tarbiya darsidan omadi chopmadi. Samadjon juda xafa bo'ldi va sport bilan shug'ullanishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

U sportning kurash to'garagiga qatnay boshladi. Muntazam mashqlar o'z samarasini ko'rsatdi. Bu orada uning o'qishi ham yaxshi tomonga o'zgardi. Samadjon tuman, shahar miqyosidagi musobaqalarda g'olib bo'ldi. Endi o'rtoqlari unga havas bilan qarashardi. Chunki Samadjon butun maktabning faxri edi-da.




Maktab direktori uni yutuqlari bilan qutlab:
— Sen kelajakda Vatanimizning munosib farzandi bo‘lishingga ishonaman, — dedi.

Obiddin Mahmudov



Sog‘lom inson baquvvat, g‘ayratli va mehnatsevar bo‘ladi. Bunday inson odamlarga, jamiyatga ko‘p naf keltiradi, Vatan ravnaqi uchun buyuk ishlar qilishga qodir bo‘ladi.



1. Samadjon sport bilan shug‘ullanib qanday yutuqlarga erishdi?
2. Siz salomatligingizni saqlash uchun nimalar qilasiz?



KUN TARTIBIGA RIOYA QILING

Kun tartibining foydasi



Orifjon va Kamol – sinfdosh. Orifjon a'lo baholarga o'qiydi. Kamol esa uy vazifalarini bajarishga ulgura olmaydi.


Bir kuni Kamol Orifjondan so'radi:

– Sen sport to'garagiga borasan, yaxshi o'qiysan. Oyim menga yaxshi o'qisang, futbolga qatnashasan, dedilar. Nima qilsam ekan?


– Men o'zim uchun kun tartibi tuzib olganman. Unga rioya qilaman, – dedi Orifjon.

Kamol uyga borib kun tartibi tuzdi. Unga sport to'garagi mashg'ulotlarini ham kiritdi. Tez orada Kamol yaxshi o'qiy boshladi. Sport to'garagiga bordi.

Kamol kun tartibiga nimalarni kiritgan? Kun tartibini to'ldiring.



Sog'lom bo'lishning uch muhim qoidasi bor: birinchisi – kun tartibiga rioya qilish, ikkinchisi – asabni saqlash, uchinchisi – harakatda bo'lish.



1. Siz kun tartibiga rioya qilasizmi?
2. Ota-onangiz ko'magida o'zingiz uchun qulay kun tartibi tuzing va unga amal qiling!



TAKRORLASH



Yaxshi fazilatlar

Yaxshi bola

Yomon odatlar

Yomon bola




Kataklarga quyidagi so'zlardan zarurini yozing:

Tartibli, dangasa, g'ayratli, mehribon, yolg'onchi, to'g'riso'z, maqtanchoq, qo'rqmas, jasur, shirinso'z, qo'pol, muloyim, mahmadona, kamgap, kamtarin.



Yaxshi fazilatlar kishilar tomonidan ardoqlab kelinayotgan ibratli xislatlardir. Yaxshi xislatlar egasi bo'lishga intiling!



1. Kimlarga o'xshashni xohlaysiz?
2. Do'stlaringiz qanday fazilat egasi bo'lishlarini istaysiz?
3. Inson qanday qilib yaxshi fazilatlar egasi bo'lishi mumkin?



Sog'lom bo'lishning uch muhim qoidasi


| | |
|-------|-------|
| _____ | _____ |
| _____ | _____ |
| _____ | _____ |

Sog'lom inson

| | | | | | | | | | | |
|---|--|--|--|--|--|--|--|--|--|---|
| b | | | | | | | | | | t |
| s | | | | | | | | | | t |



Gunoh va ayb sanaluvchi xatti-harakatlar yomon odatlar hisoblanadi. Yomon odatlardan saqlaning!



Yomon odatlardan qanday qilib qutulish mumkin?



MILLIY O‘YINLAR.

MAVSUMIY O‘YINLAR. TEZ AYTISH

Quvlashmachoq o‘yini

O‘yin sharti: bolalarning biri quvlaydi, qolgan bolalar qochadilar. Quvlayotgan bola qochayotganini tutsa: “Qara, ko‘rdim qora tosh”, — deb yelkasiga qoqadi va u qo‘lga tushgan hisoblanadi. Qochayotgan bolalar quyidagi so‘zlarni aytadilar:



Opa-uka — anjir,
Darvozasi zanjir.
Darvozani ochinglar,
Cho‘lga qarab qochinglar.
Cho‘lning yo‘li keng ekan,
Meni tutib olinglar!



“Oq terakmi, ko‘k terak?” va “Xolaxola” o‘yinlari ham milliy o‘yinlar hisoblanadi. Ularni o‘ynaganda g‘irromlik va shoshqaloqlik qilmaslik, shovqin-suron solmaslik lozim.

Zag'izg'on o'yini

O'yin sharti: bir bola Zag'izg'on qushcha bo'ladi. Qolgan o'rtoqlari qo'l ushlab, doira hosil qiladilar.



Doira ichiga o'yinchoqlar to'plab qo'yilgan bo'ladi. Zag'izg'on bo'lgan bola "qanot yozib uchib kelib" o'yinchoqlarni olib qochishga harakat qiladi. Bolalar uni quvlaydilar. Kim tutsa, uning o'rniga o'zi Zag'izg'on bo'ladi.

? Yana qaysi milliy o'yinlarni bilasiz?

! Tez aytishlarni yod oling. O'zingiz ham tez aytishga misollar keltiring.

Bir juft cho'p ko'pmi,
qo'sh juft cho'p ko'pmi?


Zanjir, sarjin, anjir.



BOLALAR QO'G'IRCHOQ TEATRI

Qo'g'irchoqlar mamlakatida

Qo'g'irchoq teatri shaharning markazidagi katta binoda joylashgan. U yerda Aziz ko'p-gina ertaklarni tomosha qilgan. Chunki u qo'g'irchoq teatrini juda yaxshi ko'radi. Yaqinda otasi Azizga qo'l bilan o'ynatsa bo'ladigan Nasriddin Afandi qiyofasidagi qo'g'irchoqni sovg'a qildi. Aziz "Qo'g'irchoqlar mamlakatida" degan ertak to'qidi. Keyin akasi bilan birga o'rtoqlariga tomosha qo'yib berdi. O'rtoqlariga ham bu o'yin yoqib qoldi.




1. Qo'g'irchoq yasashni bilasizmi?
2. Qo'g'irchoq teatrida rioya qilinadigan odob qoidalarini sanab bering.





Qo'g'irchoq teatrini bolalar sevib tomosha qiladilar. Qadim zamonlarda ko'chada, ochiq maydonlarda qo'g'irchoqbozlar tomosha ko'rsatishgan. Sunnat to'ylarda yorqin rangli yog'och toychoq mingan qo'g'irchoqboz amaki quvnoq hazillari bilan bolalarni xursand qilgan. Bolalar mato bo'laklaridan qo'g'irchoqlar tikishgan.



Rasmda qaysi ertak qahramonlari tasvirlangan?



XOTIRA VA QADRLASH KUNI.

9-MAY — XOTIRA VA QADRLASH KUNI



Vatan fidoyilarini xotirlash har birimizning insoniy burchimizdir. Qariyalar va bemorlar holidan xabar olish go'zal fazilat hisoblanadi.

Sharafli burch

Alisher Navoiy mulozimlari bilan sayrdan qaytib kelayotgan ekan. U yo'l chetidagi qabriston oldida otdan tushib, piyoda ketibdi. Mulozimlar ham otdan tushib, uning ortidan ergashibdilar. Qabristondan uzoqlashgach, yana otga minibdilar. Ular shoirdan qabriston yonidan piyoda o'tganlarining sababini so'rashibdi. Alisher Navoiy shunday deb javob beribdi:

— Bu yerda xalqimizning jigargo'shalari, tabarruk padari buzrukvorlari mangu uyquga ketganlar. Bular yonidan ot choptirib o'tish insonlik sha'niga isnoddir. Ota-bobolarimiz xokini, xotirasini e'zozlamoq har bir kishining sharafli burchidir.



Ziyorat vaqtida ajdodlarimizning ibratli ishlarini yodga olish, qariya va bemorlarga yordam ko'rsatish ziyorat odobiga kiradi.

?!

1. Ajdodlar xotirasini e'zozlash haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Ziyorat odobi qoidalariga nimalar kirishini aytib bering.



ONA TABIAT BAG'RIDA.

TABIAT MO'JIZALARI. SUV — HAYOT MANBAYI



Bizni o'rab turgan tevarak olam tabiat deb ataladi. Tabiatni asrash bizning burchimizdir.

Mehribon tabiat


Bolalar, ona tabiat bizga qanchalik mehribon ekanligini bilasizmi?

Bahorda u gullarga burkanadi, atrof ko'm-ko'k bo'lib yashnaydi. Yozda so'lim bog'lar va tog' yonbag'irlarida mazza qilib dam olamiz. Kuzda shirin-shakar meva va sabzavotlarni yeb kuchga to'lamiz. Qishda qorbo'ron o'ynab chiniqamiz.


Suv, o'simlik va daraxtlar haqiqiy tabiat mo'jizalaridir. Ular biz nafas olayotgan havoni tozalab, salqin qilib beradi. Shovqin va mikroblarni yutib, inson va jonivorlar salomatligini himoya qiladi.

Toza suv chanqoqni qondiradi, barcha jonzotlarga hayot bag'ishlaydi.

So'nggi yillarda sayyoramizda toza suv miqdori kamayib bormoqda. Unutmang, suvni tejab sarflash – barchamizning burchimiz.




1. Qanday tabiat mo'jizalarini bilasiz?
2. Suv, o'simlik va daraxtlar insonlarga qanday foyda keltiradi?
3. Nima uchun suvni tejab zarur?



1. Rasmlarni o'zaro qiyoslang.
2. Siz suvni asrab-avaylashga qanday hissa qo'shasiz?



HAYVONOT OLAMIGA SAYOHAT




1. Rasmda nimalar tasvirlangan?
2. Siz jonivorlarga qanday g'amxo'rlik qilasiz?



Qushcha

Goh butoqqa, goh gulga qo'nar,
Tinim bilmas sayroqi qushcha.
Nechun bahor seni rom etgan,
Qayda eding bahor kelguncha?
Kel, yashaylik hamisha birga,
Bizda bahor, gullar barchasi.

Abdulla Oripov



1. Qaysi qushlar bahorda yurtimizga uchib keladi?
2. "Qushlar — bizning do'stimiz" mavzusi-
sida hikoya tuzing.



Hayvonot olami juda boy. Har biringizning sevimli jonivoringiz bo'lsa kerak. Siz yaxshi ko'radigan ertaklardagi qahramonlarning ko'pchiligi ham hayvon va parrandalardan iborat-ku. Masalan, ot, yo'lbars, sher, kiyik, kalxat, oqqush va boshqalar. Bolalar, yodingizda tuting!

Jonivorlarga ozor bermaslik, ularning yashashi uchun sharoit yaratish, don-dun, yemish berish oliyjanob fazilat sanaladi.



TAKRORLASH

1. Qanday milliy o'yinlarni bilib oldingiz?
2. O'yin odobi haqida so'zlab bering.
3. Ziyoratgohga borish odobi nimalardan iborat?
4. Uy hayvonlari qanday parvarish qilinadi?
5. Qo'riqxonalarda qaysi hayvonlar saqlanadi?
6. Jonivorlar haqida maqol va topishmoqlar toping.



Yashna, Vatan!

Ey, aziz Vatan —
Jonajonimiz,
Sen bizning shodlik,
Gulistonimiz.
Bizga mehribon,
Sevimli ona,
Berding bizga ilm,
Kitob, darsxona.

Zafar Diyor



O'quvchining odobi nimalarda ifodalanadi?



MUNDARIJA

O'ZBEKISTON — OZOD, OBOD DIYOR

| | |
|-----------------------------------|----|
| 1-SENTABR — MUSTAQILLIK KUNI..... | 3 |
| VATAN MEHRI..... | 4 |
| O'ZBEKISTON — JANNAT YURT | 6 |
| VATAN BO'YLAB SAYOHAT..... | 8 |
| OILA — BAXT QO'RG'ONI | 10 |
| OILA — MEHR BULOG'I..... | 11 |
| OILAVIY AN'ANALAR..... | 12 |

ODOB — INSON UCHUN OFTOB

| | |
|---|----|
| SALOMLASHISH ODOBI..... | 14 |
| KIM BIRINCHI SALOM BERADI?..... | 15 |
| SALOMLASHISH QOIDALARI..... | 16 |
| ORASTALIK — GO'ZALLIK RAMZI..... | 17 |
| O'QUVCHINING ODOBI | 18 |
| MAKTAB QOIDALARI | 19 |
| KIYINISH ODOBI | 20 |
| KATTAGA HURMATDA, KICHIKKA IZZATDA BO'L | 22 |
| DASTURXON ATROFIDA O'TIRISH VA OVQATLANISH ODOBI | 24 |

INSONNI ULUG'LAYDIGAN FAZILATLAR

| | |
|--|----|
| JASUR YIGIT | 26 |
| QIZLAR FAZILATI — HAYO VA IBO | 28 |
| O'QISHDA VA MEHNATDA G'AYRATLI, SHIJOATLI BO'L..... | 30 |
| ROSTGO'YLIK BA YOLG'ONCHILIK | 32 |
| KAMTARLIK VA MANMANLIK | 34 |

ILM VA HUNARNING XOSIYATI

| | |
|-----------------------------------|----|
| ILM VA HUNAR TURLARI | 36 |
| ILM XOSIYATI HAQIDA | 37 |
| HUNARLI KISHI XOR BO'LMAS | 38 |
| KIM BO'LSAM EKAN? | 40 |
| HAR KASBNING O'Z XISLATI BOR..... | 41 |

SALOMATLIK — TUMAN BOYLIK

| | |
|------------------------------------|----|
| TISHING SOG' — VAQTING CHOG' | 42 |
| ERTA TURISHNING XOSIYATI | 43 |
| SOG' TANDA — SOG'LOM AQL | 44 |
| KUN TARTIBIGA RIOYA QILING | 46 |

| | |
|-------------------------|----|
| TAKRORLASH | 48 |
|-------------------------|----|

MILLIY O'YINLAR

| | |
|-------------------------------------|----|
| MAVSUMIY O'YINLAR. TEZ AYTISH | 50 |
| BOLALAR QO'G'IRCHOQ TEATRI | 52 |


XOTIRA VA QADRLASH KUNI

| | |
|---------------------------------------|----|
| 9-MAY — XOTIRA VA QADRLASH KUNI | 54 |
|---------------------------------------|----|

ONA TABIAT BAG'RIDA

| | |
|--|----|
| TABIAT MO'JIZALARI. SUV — HAYOT MANBAYI..... | 56 |
| HAYVONOT OLAMIGA SAYOHAT | 58 |

| | |
|-------------------------|----|
| TAKRORLASH | 60 |
|-------------------------|----|



UO'K: 17(075)
KBK 74.200.51
H-33

Hasanboyeva O.

Odobnoma: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
1-sinfi uchun darslik/ O.Hasanboyeva, M.Inoyatova. —
Uchinchi nashri — T.: «O'zbekiston milliy ensiklope-
diyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2013. — 64 b.

KBK 74.200.51

O'quv nashri

Oysha Hasanboyeva
Muhayyo Inoyatova

ODOBNOMA
1-sinf uchun
darslik

Uchinchi nashr

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti,
Toshkent — 2013

| | |
|-----------------|--------------------|
| Muharrir | Mahmud To'ychiyev |
| Badiiy muharrir | Asomiddin Burhonov |
| Rassom | Baxtiyor Muhamedov |
| Sahifalovchi | Asqar Yoqubjonov |

Nashriyot litsenziyasi
Al № 160, 14.08.2009-y.

05.06.2013-y. da bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70x90^{1/16}.
Kegli 18. Ofset usulida bosildi. Sharhli bosma tabog'i 4,68.
Nashr hisob tabog'i 4,04. Adadi 448 279 nusxa.
13-275-sonli buyurtma.

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti, 2013.
Toshkent — 129, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent — 129, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

РАССЫЛКА